



Gormonal Buzulishlar Oqibatida Ayollarda Kelib Chiqadigan Kasalliklar Kelib Chiqishi Va Davolash Usullari.

Bo'riyeva Gulyora Dehqonovna

Tibbiyot Fakulteti Davolash ishi

yo'nalishi 1-kurs talabasi

Qarshi Davlat Universiteti

Annotatsiya: Gormonlar-bu bezlar tomonidan ishlab chiqariladigan va organizmdagi ko'plab jarayonlarni boshqaradigan moddalar. Ayollar tanasida gormonlar reproduktiv tizim (tug'ish salohiyati), tuyg'ular, go'zallik, moddalar almashinuvi va umumiy sog'lik uchun katta ahamiyatga ega. Bu gormonlar asosan ichki sekretiya bezlaridan ishlab chiqariladi va qonga quyiladi. Qon orqali butun tana bo'ylab tarqaladi va ma'lum to'qima yoki nishon a'zolariga ta'sir qiladi. Organizmdagi biologik jarayonlarni boshqaradi. Ushbu maqolada ayol organizmida bo'ladigan turli xil o'zgarishlar, kelib chiqadigan kasalliklar, profilaktikasi, davolash usullari haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: esterogen, prolaktin, progesteron, follikula stimullovchi gormon, follikula lyuteinlovchi gormon, oksitotsin, mastopatiya.

Kirish. Inson organizmida gormonlar hayotiy muhim vazifalarni bajaradigan biologik faol moddalar hisoblanadi. Ayollarda gormonal tizim muvozanati uzviy ravishda hayz davri, homiladorlik, emizish va klimakterik davr bilan bog'liq jarayonlarni boshqaradi. Endokrin tizimning izdan chiqishi ayollarda turli kasalliklar, reproduktiv funksiya buzilishi, ichki a'zolar faoliyatida noxush holatlarga sabab bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har besh ayoldan biri hayoti davomida kamida bir marta gormonal buzilish bilan bog'liq muammoga duch keladi.

Gormonal disfunktsiyalar reproduktiv tizimdagi bir qator holatlarni anglatadi. Ushbu disfunktsiyalar o'zgaruvchan gormon darajalari, ularning asimmetrik yoki nisbatan yuqori/ pastdarajada bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Gormonlar ayol organizmida hayz ko'rishtsikllarini tartibga solish, tuxumdonlarning ishlashini boshqarish, homiladorlikni qo'llab-quvvatlash va boshqa muhim biologik jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Gormonlar tananing xabarchilaridir. Endokrin bezlarda ishlab chiqariladigan gormonlar qon oqimi bilan to'qimalar va organlarga qachon va nima qilish kerakligi haqida xabar beradi. Ulartanadagi muhim jarayonlarni boshqaradi. Gormonal buzilishlar erkaklarnikiga qaraganda ayollarda ko'proq uchraydi. Ushbu gormonal buzilishlar ayollarda ko'plab kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ko'p ayollar, turli sabablarga ko'ra gormonal muvozanatdan aziyat chekadi va shuning uchun ravishda turli xil sog'liq muammolariga duch keladi.

Ayollar organizmida gormonlarning asosiy funksiyalari bor. Masalan esterogen bachadon, qin, sut bezlarini rivojlantiradi. Teri, suyak, yurak-qon tomir tizimi salomatligini saqlaydi. Ikkilamchi jinsiy belgilar (ko'krak, son, soch)ni shakllantiradi. Hayz siklining birinchi davrini boshqaradi.

Progesteron-homiladorlikni saqlovchi asosiy gormon. Bachadon shilliq qavatini homilaga tayyorlaydi. Hayznind ikkinchi davrida faol bo'ladi, bachadon mushaklarini bo'shashtiradi va erta tug'ruqdan himoya qiladi.

Prolaktin- sut bezlarini faol holatga keltirib, laktsiyaning ta'minlaydi.

Follikula stimullovchi gormon tuxumdonlarda follikula yetilishini boshqarsa, follikula lyuteinlovchi gormon follikulani sariq tanaga aylanishiga sabab bo'ladi.

Oksitotsin tug'ruq vaqtida bachadon qisqarishini qisqartiradi.



Bu gormonlar normada ishlab chiqarilgandagina ayol sog'lom va go'zal bo'ladi. Gormonlar muvozanati buzilganda ayolda hayz sikli buziladi (ko'p yoki kam kelishi, umuman to'xtashi), tuxum yetilmasligi (beqaror ovulyatsiya), beqaror ruhiy holat, depressiya, jizzakilik, mastopatiya va ko'krak bezlarida o'zgarishlar, soch to'kilishi, yog'li teri hushbu'zrlar kabi simptomlar kuzatiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Gormonlar muvozanati buzilishi (ya'ni giperfunksiyasi yoki gipofunksiyasi) ayollar salomatligiga ko'p salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat ayniqsa reproduktiv tizim, metabolizm, asab tizimi, suyak, teri, sochlar holatida seziladi. Keyingi paytlarda ayollar o'rtasida gormonlar buzilishi oqibatida mastopatiya kasalligi ko'p uchramoqda. Mastopatiya-bu sut bezlarining gormonal muvozanati buzilishi natijasida rivojlanadigan silliq to'qimalarning (biriktiruvchi va bezli) o'sishi, tugunlar, og'riq va shish bilan namoyon bo'ladigan kasallikdir. Bu kasallik sababi ayollarning kam farzand ko'rish yoki farzandsizlik, abortlar, ko'krak suti bilan bola boqmagan ayollarda ko'p kuzatiladi. Ayollarning 60-80%ida hayoti davomida kamida 1 marta aniqlanadi. 30 yoshdan yuqori yoshdagi ayollarda ko'proq uchraydi.

Tadqiqot natijalari.

Respublika Ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (Toshkent 2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra 1000 nafar ayoldan 76% da turli darajadagi mastopatiya aniqlangan. Ulardan 62%ida kasallik diffuz shaklda, 14%ida esa tugunli shaklda bo'lgan. Tug'magan va abort qilgan ayollar orasida uchrash ehtimoli 2 barobar yuqori bo'lgan.

D.X.Jo'rayev ("Ginekologiya") darsligida keltirilgan raqamlarga ko'ra: mastopatiya bilan kasallangan ayollarning 30%ida ko'krakdagi tugunlar biopsiyasi o'tkazilgan. Ularning 5-10% hollarda onkologik xavf belgilari aniqlangan. Bu kasallikni erta aniqlash uchun har yili kamida 1 marta ginekolog yoki mammolog ko'rigidan o'tish lozim. 30-35 yoshgacha bo'lgan ayollar sut bezini UZI apparatiga, 40 – yoshdan yuqori oshgan ayollar esa mammagrafiya tekshiruvidan o'tib turishlari kerak. Bundan tashqari, sog'lom turmush tarzi, ratsional ovqatlanish ham katta ahamiyat kasb ega.

Xulosa: Mastopatiya – ayollar orasida keng tarqalgan, ko'krak bezlarining gormonal disbalansi bilan bog'liq bo'lgan distrofik kasallik bo'lib, ayniqsa 25-50 yosh oralig'idagi ayollarda ko'p uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu kasallik asosan organizmda esterogen ortiqcha ishlab chiqarilishi va progesteron yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadi. Ko'krakda og'riq, tugun hosil bo'lishi, bezovtalik, suyuqlik (yiring, qon, seroz) ajralishi kabi belgilar mastopatiyaning asosiy simptomlaridandir. Tadqiqotlar natijalari kasallikning keng tarqalganligini unga olib keluvchi omillar (abort, stress, emizmaslik, gormonal muolajalar) muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu kasallik vaqtida aniqlanmasa, onkologik kasalliklarga olib kelish xavfi mavjud. Gormonal muvozanatni nazorat qilish esa faqatgina mastopatiya emas, balki boshqa ko'plab ginekologik va endokrin kasalliklarni ham samarali profilaktikasi bo'lib hisoblanadi.

Ayollarda gormonal buzilishlar nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatga ham ta'sir qiladigan jiddiy muammo hisoblanadi. Barvaqt tashxis qo'yish, aniq sabablarni topish va kompleks davolash orqali salomatlikni tiklash mumkin. Zamonaviy tibbiyotda gormonal muvozanatni tiklashning samarali usullari mavjud bo'lib, har bir holatga individual yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ginekologiya" - D.X.Jo'rayev, Toshkent 2018. 188-197- betlar.
2. "Endokrinologiya asoslari" S.M.Rahmatullayev, Toshkent. Tibbiyot 2016, 165-178 betlar.
3. "Odam fiziologiyasi" - Yo'ldoshev A.A., Toshxo'jayev M.X. 2020. 224-237 betlar.
4. "Normal fiziologiya" - O.T.Alyaviya, SH.Q. Qodirov, Toshkent 2007. 155-183 betlar.
5. w.w.ziyouz.com kutubxonasi.